LIRIK TURDAGI ASARLARNI IFODALI O‘QISHDA NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR

Aralova Gulsanam Ismatilla qizi
Termiz davlat pedagogika
Instituti talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24456273

Annotasiya: Ushbu maqolada lirik asarlarni ifodali o‘qishning nazariy tizimi va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Unda lerik she’riyatning tabiati undagi ichki kechinma va ruhiy holatni tinglovchiga yetkazish, intonatsiya, she'riy vazn, ritm, mantiqiy urg'u va psixologik pauzalar kabi nazariy komponentlar mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, lirik asarni ifodali ijro etishga tayyorgarlik ko‘rishning amaliy bosqichlari va lirik qahramon qiyofasiga kirish, ovoz va diksiya ustida ishlash usullari tizimlashtirilgan.
Kalit so‘zlar: lirik tur, ifodali o‘qish, intonatsiya, lirik qahramon, badiiy obraz, hissiy ta'sir, ohang , urg'u ,pauza , nutq texnikasi, ritm , she'riy vazn.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы и практические аспекты выразительного чтения лирических произведений. Анализируется природа лирической поэзии — в частности, процесс передачи слушателю внутренних переживаний и эмоциональных состояний, — а также раскрывается сущность таких ключевых теоретических элементов, как интонация, поэтический метр, ритм, логическое ударение и психологические паузы. Кроме того, в статье систематизируются этапы подготовки к выразительному исполнению лирического произведения, включая приемы воплощения лирического а также работу над голосом и дикцией.
Ключевые слова: лирический жанр, выразительное чтение, интонация, лирический герой, художественный образ, эмоциональное воздействие, тон, ударение, пауза, речевая техника, ритм, поэтический метр .

Abstract: This article examines the theoretical framework and practical foundations for the expressive reading of lyrical works. It explores the nature of lyrical poetry—specifically the transmission of inner experiences and emotional states to the listener—and clarifies the essence of key theoretical components such as intonation, poetic meter, rhythm, logical stress, and psychological pauses. Furthermore, the article systematizes the practical stages of preparing for an expressive performance of a lyrical work, including techniques for embodying the lyrical persona and refining voice and diction.
Keywords: lyrical genre, expressive reading, intonation, lyrical persona, artistic image, emotional impact, tone, stress, pause, speech technique, rhythm, poetic meter.

Lirik asarlarni ifodali o‘qish — shunchaki matnni ovoz chiqarib o‘qish emas, balki shoirning qalb kechinmalari, ichki kechinmalari va badiiy niyatini ovoz ohangi (intonatsiya) vositasida qayta jonlantirish san’atidir. Lirika tabiatan inson ichki dunyosini, his-tuyg‘ulari va emotsiyalarini aks ettirgani bois, uni ijro etish alohida tayyorgarlik va mahorat talab qiladi. Bugungi kunda ta’lim tizimida va madaniy hayotda lirik asarlarni ifodali o‘qish yoshlarning estetik didini shakllantirish, nutq madaniyatini oshirish va ularda adabiyotga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur ishning maqsadi lirik asarlarni ifodali o‘qishning nazariy qoidalari (vazn, qofiya, turoq, pauza) va ularni amaliyotda qo‘llash usullarini tizimli ravishda yoritib berishdan iborat.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Lirik asarlarni ifodali o‘qish nazariyasi adabiyotshunoslik va ifodali o‘qish san’atining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Lirika badiiy adabiyotning uch asosiy turidan biri bo‘lib, unda insonning ichki kechinmalari, his-tuyg‘ulari, orzu-umidlari, ruhiy holati va hayotga munosabati ifodalanadi. Lirik asarlarda voqealarni batafsil bayon qilishdan ko‘ra, inson qalbida kechayotgan tuyg‘ularni ochib berish muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bunday asarlarni ifodali o‘qish jarayonida she’rning mazmuni, g‘oyasi, hissiy ta’siri va badiiy xususiyatlarini chuqur anglash talab etiladi. Lirik asarlarni o‘qishda pauza, ya’ni to‘xtamdan to‘g‘ri foydalanish ham zarur. Pauza nutq davomida muayyan vaqt to‘xtash orqali fikrlarni ajratish, mazmunni aniqlashtirish yoki hissiy ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ifodali o‘qishda grammatik, mantiqiy va psixologik pauzalar farqlanadi. Grammatik pauza tinish belgilariga muvofiq yuzaga keladi. Mantiqiy pauza mazmunan bog‘liq qismlarni ajratishga yordam beradi. Psixologik pauza esa lirik qahramonning ichki kechinmalarini, hayajonini, iztirobini yoki chuqur o‘yga botgan holatini ifodalashda qo‘llanadi. Pauzalarni o‘rinli qo‘llash she’rning mazmunini to‘liqroq ochishga imkon beradi. Lirik asarlarni ifodali o‘qish nazariyasi adabiyotshunoslik va ifodali o‘qish san’atining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Lirik asarni muvaffaqiyatli ijro etish uchun uning she’riy tabiati va nutq texnikasi qonuniyatlarini mukammal bilish talab etiladi. Buning uchun quyidagi asosiy nazariy komponentlarga tayaniladi:

Intonatsiya (Ohang): Nutqning eng muhim emotsional vositasi bo‘lib, she’rdagi g‘am, shodlik, hayrat yoki isyon kayfiyatini ovoz toni orqali ifodalaydi.

• Musiqiylik va Ritm: Har bir lirik asar muayyan vaznda (barmoq yoki aruz) yoziladi. Ritmik qurilishni buzmasdan, misralardagi bo‘g‘inlar va urg‘ular mutanosibligini saqlash she’rning ohangdorligini ta’minlaydi.

• Majratishga (mantiqiy) hamda lirik qahramonning hayajoni va ruhiy holatini (psixologik) ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Lirik asarlarni o‘qishda pauza, ya’ni to‘xtamdan to‘g‘ri foydalanish ham zarur. Pauza nutq davomida muayyan vaqt to‘xtash orqali fikrlarni ajratish, mazmunni aniqlashtirish yoki hissiy ta’sirni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ifodali o‘qishda grammatik, mantiqiy va psixologik pauzalar farqlanadi. Grammatik pauza tinish belgilariga muvofiq yuzaga keladi. Mantiqiy pauza mazmunan bog‘liq qismlarni ajratishga yordam beradi. Psixologik pauza[1] esa lirik qahramonning ichki kechinmalarini, hayajonini, iztirobini yoki chuqur o‘yga botgan holatini ifodalashda qo‘llanadi. Pauzalarni o‘rinli qo‘llash she’rning mazmunini to‘liqroq ochishga imkon beradi.

Lirik turdagi asarlarni ifodali o‘qish amaliyoti she’riy matnning mazmuni, g‘oyasi, badiiy xususiyatlari va hissiy ta’sirini ovoz orqali tinglovchiga yetkazishga asoslanadi. Bunda o‘quvchi she’rni shunchaki o‘qib bermasdan, unda ifodalangan tuyg‘ularni anglaydi, lirik qahramonning ruhiy holatini his qiladi va asarning badiiy mazmunini ochib berishga harakat qiladi. Lirik asarlarni ifodali o‘qish jarayonida ohang, urg‘u, pauza, nutq texnikasi, she’riy vazn, badiiy obraz va hissiy ta’sir kabi tushunchalar muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy ijroda ohang, ya’ni intonatsiyadan foydalanish katta ahamiyatga ega. Ohang nutqning mazmuni va hissiy xususiyatlarini ovozning baland-pastligi, kuchi hamda o‘zgarishi orqali ifodalash vositasidir. Lirik asarning mazmuniga qarab sokin, g‘amgin, ko‘tarinki, jo‘shqin yoki mulohazali ohang tanlanadi. Masalan, falsafiy mazmundagi she’rlar vazmin ohangda o‘qilsa, quvonch va shodlik aks

[1]Abu Ali ibni Sino."She'r san'ati "-Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1989 y.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

etgan she'rlar ko'tarinki ruhda ijro etiladi. Ohangni to'g'ri tanlash she'r mazmunini tinglovchiga aniq va ta'sirchan yetkazishga yordam beradi.

Ifodali o'qishda urg'u ham muhim vosita hisoblanadi. Urg'u so'z yoki uning tarkibidagi bo'g'inning boshqalariga nisbatan ajratib talaffuz qilinishidir. Ifodali o'qishda so'z urg'usi bilan bir qatorda mantiqiy urg'udan ham foydalaniladi. Mantiqiy urg'u she'rning asosiy mazmunini ifodalovchi so'z yoki iborani alohida ta'kidlashga xizmat qiladi. Buning natijasida tinglovchi muhim fikrni yaxshiroq anglaydi. Biroq urg'uni o'rinli qo'llash zarur, chunki ortiqcha ta'kidlash she'rning tabiiy ohangini buzishi mumkin.

She'rning mazmunini to'g'ri yetkazishda pauza, ya'ni nutqiy to'xtamdan foydalanish ham muhimdir. Pauza fikrlarni ajratish, mazmuniy qismlarni belgilash va hissiy ta'sirni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Ifodali o'qishda grammatik, mantiqiy va psixologik pauzalardan foydalaniladi. Grammatik pauza tinish belgilariga muvofiq qo'llansa, mantiqiy pauza mazmunan muhim qismlarni ajratadi. Psixologik pauza esa lirik qahramonning ichki[2] kechinmalarini chuqurroq ifodalashga yordam beradi. Pauzalar she'rning mazmuni, sintaktik tuzilishi va ritmiga muvofiq belgilanadi. Lirik asarlarni amaliy o'qishda nutq texnikasiga ham alohida e'tibor beriladi. Nutq texnikasi fikrni ovoz orqali aniq, ravon, tushunarli va ta'sirchan yetkazishga xizmat qiladigan ko'nikmalar majmuasidir. U to'g'ri nafas olish, ovozni boshqarish, diktsiya, talaffuz va nutq sur'atini o'z ichiga oladi. She'r o'qish davomida nafasni to'g'ri taqsimlash, tovushlarni aniq talaffuz qilish va ovozning tabiiyligini saqlash lozim. Shuningdek, temp, ya'ni o'qish tezligi she'rning mazmuniga mos tanlanishi kerak. She'rni haddan tashqari tez o'qish tinglovchining mazmunni tushunishiga xalaqit beradi, juda sekin o'qish esa uning tabiiyligini buzishi mumkin.

She'riy asarlarning ifodali ijrosida she'riy vazn va ritm ham muhim o'rin tutadi. She'riy vazn misralarning muayyan ritmik qonuniyatlar asosida tashkil topish tizimi bo'lib, ritm she'riy nutqning muayyan tartibda takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdorlikdir. O'zbek she'riyatida barmoq va aruz vaznlari keng qo'llanadi. Barmoq vaznida bo'g'inlar soni va turoqlarning joylashuvi, aruz vaznida esa qisqa va cho'ziq hijolarning muayyan tartibi muhim hisoblanadi. She'rni ifodali o'qishda uning vazni va ritmini hisobga olish, misralarning tabiiy ohangini saqlash zarur. Bu she'rning musiqiyligini kuchaytiradi va ijroning ravon bo'lishini ta'minlaydi. Lirik asarni ifodali o'qishga tayyorgarlik ko'rishda, avvalo, uning mavzusi va g'oyasi aniqlanadi. She'r bir necha marta o'qilib, undagi asosiy fikr, badiiy tasvir vositalari va ruhiy kechinmalar tahlil qilinadi. Ayniqsa, lirik qahramonning ichki dunyosini anglash muhimdir. Lirik qahramon — she'rda his-tuyg'ulari, fikrlari, orzu-umidlari va kechinmalari ifodalangan obrazdir. O'quvchi lirik qahramonning kayfiyatini to'g'ri anglagan holda she'rning ijro usulini tanlaydi. Masalan, sog'inch va ayriliq ifodalangan she'r sokin, mungli ohangda, Vatan va xalq madh etilgan she'r esa ko'tarinki, jo'shqin ohangda o'qilishi mumkin. Erkin Vohidovning "O'zbekiston " she'ri lirik tur haqida aytilgan fikr - mulohazalarimizni yorqin dalilidir.

Yurtim ,Seni yana oldim qalamga
To'ying, shodiyonaga bahona bo'lib.
Yana kelib qo'nding tonggi bmisramga,
Falak nisor etgan durdona bo'lib.
Iqbol peshonamga bitgan Osiyoning -
O'zbekistonim.

[2]Z. Masharipovning " Ifodali o'qish praktikum va adabiy tahlil asoslari qonun-qoidalar" Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti ,2011y.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

She'rni ifodali o'qishda badiiy obraz tushunchasi ham alohida o'rin tutadi. Badiiy obraz — hayot hodisalari, insonlar, tabiat va turli tushunchalarning adabiy asarda ijodiy tasvirlanishidir. Lirik asarlarda tabiat manzaralari, inson qalbi, muhabbat, Vatan va boshqa tushunchalar turli obrazlar orqali ifodalanadi. Ushbu obrazlarning mazmunini tushunish she'rning asosiy g'oyasini chuqurroq anglashga yordam beradi. Masalan, quyosh obrazi ayrim she'rlarda umid va yorug'likni, tun obrazi esa yolg'izlik yoki g'aminlikni anglatishi mumkin. Ifodali o'qish jarayonida obrazlarning mazmuni hisobga olinib, ularga mos ohang va urg'u tanlanadi. She'riy asarlarning ifodali ijrosida she'riy vazn va ritm ham muhim o'rin tutadi. She'riy vazn misralarning muayyan ritmik qonuniyatlar asosida tashkil topish tizimi bo'lib, ritm she'riy nutqning muayyan tartibda takrorlanishi natijasida yuzaga keladigan ohangdorlikdir. O'zbek she'riyatida barmoq va aruz vaznlari keng qo'llanadi. Barmoq vaznida bo'g'inlar soni va turoqlarning joylashuvi, aruz vaznida esa qisqa va cho'ziq hijolarning muayyan tartibi muhim hisoblanadi. Barmoq vaznidagi lirik asar (Zamonaviy she'riyat) Abdulla Oripov — "Onajon" she'ri parchasi.

Yillar o'tdi, | yoshim ham qirqqa yetdi bugun,
Sochlaringga oq oralab, | qadding dolmi, onajon?
Senga aytgan | shirin so'zim bormi mening, | aytgin-chi, |
Yoki qalbing | hamon g'amga | g'arqmi, onajon? ||

Ijro uslubi va amaliy asosi: Ushbu she'r barmoq vaznida bo'lgani uchun misralardagi turoqlar (3+4 yoki 4+4) ritmini buzmaslik kerak. Ohang samimiy, biroz mungli va sog'inch hissiyotiga yo'g'rilgan bo'lishi shart. "Qirqqa", "oq oralab" va "g'arqmi, onajon" so'zlariga kuchli mantiqiy urg'u beriladi.

Xulosa qilib aytganda, lirik turdagi asarlarni ifodali o'qish badiiy adabiyotning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, lirik qahramonning ichki kechinmalari va ruhiy holatini tinglovchiga ta'sirchan yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning o'zaro uyg'unligi alohida o'rin tutadi. Xususan, she'riy vazn, ritm, qofiya, intonatsiya, mantiqiy urg'u, ohang va psixologik pauzalardan o'rinli foydalanish asarning badiiy-estetik ta'sirini kuchaytiradi. Demak, lirik turdagi asarlarni ifodali o'qitish nazariy bilimlar, amaliy mashqlar va ijodiy yondashuvni birlashtiruvchi murakkab jarayondir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish adabiy merosni chuqur anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni his etish hamda yosh avlodning ma'naviy-estetik dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Masharipova .Z (2011) Ifodali o'qish praktikum va adabiy tahlili asosiy qonun-qoidalari . Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.
2. Yo'ldoshev, Q., & Qodirov, B. (2020). Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Muharrir nashriyoti.
3. Tojiyev, M. (2019). Nutq texnikasi va notiqlik san'ati. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Boboyev, T. (2001). Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O'zbekiston.
5. Abu Ali ibni Sino.(1989) She'r san'ati . Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti .

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.